



TASDIQLAYMAN
"Toshkentsuvqurilishinvest" DM
direktori o'rinbosari
komissiya raisi

J. Turdiyev

ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH HUJJATLARI

Buyurtmachi: "Toshkentsuvqurilishinvest" DM

Loyiha nomi: "Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi "Achchisoy" kollektorini tizimli ta'mirlash tiklash" (1-bosqich)" ob'ektining atrof muhitga ta'siri to'g'risida ariza loyihasini ishlab chiqish va tegishli ekspertiza tashkilotidan ijobiy ekologik hulosasini olish

Toshkent shahar 2022-yil

HUJJATLAR TARKIBI

- I. Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchisi uchun ko'rsatma.
- II. Malaka hujjatlari ro'yxati.
- III. Ishtirokchilar eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini malakaviy baholash tartibi va mezonlari.
- IV. Shartnoma loyihasi.

Muhim!

- Quyida ushbu xarid hujjatlari uchun eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchilari tomonidan to'ldirilishi majburiy bo'lgan hujjatlarning shakllari keltirilgan.
 - Shakl № 1 (kafolat xati, davlat ro'yhatidan o'tganligi to'g'risida guvohnoma ilova qilinadi);
 - Shakl № 2 (umumiy ma'lumot, ishchi hodimlarning diplom va elektron mehnat daftarchasidan nusxa, bajarilgan ishlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi) ;
 - Shakl № 3 (moliyaviy xolati to'g'risida ma'lumot, oxirgi 2 yillik balans va moliyaviy hisobotlar ilova qilinadi)
 - Shakl № 4 (korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza)
- Barcha shakllar eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchisining vakolatli vakilining imzosi va jonli muhri bilantasdiqlangan bo'lishi shart.
- Agar eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchisi quyidagi shakllarni taqdim etmasa yoki ularni belgilangan shaklda taqdim etmasa, komissiya unday taklifni ko'rib chiqmasdan chetlatishga xaqli.

I. ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH ISHTIROKCHISI UCHUN KO'RSATMA

1	Umumiy qoidalar	1.1	Ushbu xarid hujjatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.
		1.2	Eng yaxshi takliflarni tanlash predmeti: "Zangiota tumanidagi "Achchisoy" kollektorini tizimli ta'mirlash tiklash (1-bosqich)"
		1.3	E'londa ko'rsatilgan xizmatlar bilan bir qatorda eng yaxshi takliflarni tanlash g'olibi, taklifning qiymati doirasida va obyektning hususiyatlaridan kelib chiqib, qo'shimcha ishlarni bajarishi mumkin. Ushbu qo'shimcha ishlar maxsus axborot potalida "talablar" bo'limida ko'rsatiladi.
		1.4	Buyurtmachining boshlang'ich qiymati QQS siz 12 500 000 so'm Ishlarni bajarish muddati 20 – kun. Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchisining taklifi buyurtmachining boshlang'ich narxidan yuqori bo'lmasligi kerak.
		1.5	Eng yaxshi takliflarni tanlash taklifida ko'rsatilgan narxlar belgilangan qiymatdan oshmasligi kerak.
		1.6	Xizmat ko'rsatish uchun texnik topshiriq xarid hujjatlarining texnik qismida taqdim etiladi.
		1.7	Xarid komissiyasi yig'ilishining shakllari-komissiyani shaxsan muhokama qilish shaklida.
2	Eng yaxshi takliflarni tanlash tashkilotchilari	2.1	"Toshkentsuvqurilishinvest" DM eng yaxshi takliflarni tanlashning buyurtmachisi (keyingi o'rinlarda "buyurtmachi") hisoblanadi. "Buyurtmachi" manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Rohat ko'chasi, 13 uy.
		2.2	Tashkilotchi bilan aloqa: tel.: +71 230-73-69; 93/585-94-85 Baxramov A.
		2.3	Komissiyaning ishchi organi Xarid komissiyasi hisoblanadi (bundan keyin – "ishchi organ"). Manzil: Toshkent shahar, Rohat ko'chasi, 13 uy.
3	Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchilari	3.1	Eng yaxshi takliflarni tanlashda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, har qanday yuridik shaxs, shu jumladan kichik biznes subyektlari ishtirok etishi mumkin, 4.2 ga kiritilgan yuridik shaxslardan tashqari.
		3.2	Ishtirokchilar quyidagi mezonlarga javob berishlari kerak; - shartnoma shartlarini bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar va boshqa resurslar mavjudligi; - loyiha ishlarini, loyihani barcha bo'limlarini tayyorlovchi malakali muhandislar va mutaxassislar ro'xati va ularni malakasini tasdiqlovchi hujjat nushasi (elektron mehnat daftachasidan nusxa va diplom nusxalari); - shartnoma tuzish huquqi; - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning yo'qligi; - ularga nisbatan qo'llaniladigan bankrotlik harakatlarining yo'qligi; - "buyurtmachi" bilan sud yoki hakamlik muhokamasining yo'qligi; - ishonchsiz ijrochilarning yagona reestrda ular haqida hech qanday ma'lumot yo'qligi.
4	Eng yaxshi takliflarni tanlash o'tkazish tartibi	4.1	Eng yaxshi takliflarni tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchi: a) rasmiy veb-saytda joylashtirilgan xarid hujjatlari elektron versiyasini olish (yuklab olish) b) xarid hujjatlari talablariga muvofiq eng yaxshi takliflarni tanlash taklifini taqdim etish;

		4.2	Buyurtmachi ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatadi, agar: <ul style="list-style-type: none"> - ishtirokchi har qanday harakatni amalga oshirishga, qaror qabul qilishga yoki davlat xaridlari jarayonida buyurtmachini har qanday tanlab olish tartib-taomilini qo'llashga ta'sir qilish maqsadida buyurtmachining yoki boshqa davlat organining har qanday amaldagi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga, yoki boshqa davlat organiga har qanday shaklda mukofot, ishga yollash to'g'risidagi taklif yoki boshqa qimmatli narsa yoki xizmatni taklif etsa, bersa yoki berishga rozilik bersa; - ishtirokchi qonunchilikni buzgan holda adolatsiz raqobat afzalligi yoki manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lsa; - malakaviy ma'lumotlarda noto'g'ri ma'lumot taqdim etilgan taqdirda;
5	Eng yaxshi takliflarni tanlash tili, o'lovbirligi.	5.1	Eng yaxshi takliflarni tanlash taklifi va u bilan bog'liq barcha yozishmalar, ishtirokchi va buyurtmachitomonidan amalga oshiriladigan hujjatlar o'zbek-lotin yoki o'zbek kirill yozuvida bo'lishi kerak.
6	Eng yaxshi takliflarni tanlash taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi	6.1	Xarid ishtirokchilari, e'londa belgilangan tartibda eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini https://etender.uzex.uz/ elektron portalida mazkur lotga elektron ko'rinishda yuklaydilar.
		6.2	Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchisi: <ul style="list-style-type: none"> - taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va ishonchliligi uchun javob beradi;
		6.3	Agar eng yaxshi takliflarni tanlash savdolari predmeti bo'lgan ishlar (xizmatlar) bajarilishi bilan bog'liq faoliyat qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalanishi lozim bo'lsa, belgilangan tartibda berilgan tegishli litsenziyaga ega bo'lgan talabgorlar eng yaxshi takliflarni tanlash savdolarida ishtirok etishga ruxsat etiladi.
		7.2	Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini taqdim etish muddatlarini uzaytirishi mumkin, bunda uzaytirish to'g'risidagi e'lon https://etender.uzex.uz saytiga joylashtiriladi.
8	Eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish	8.1	Agar kerak bo'lsa, buyurtmachi xarid hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Xarid qilish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qaror takliflarni taqdim etish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin qabul qilinishi mumkin. Xarid hujjatiga o'zgartirish kiritish jarayonida mahsulot (ish, xizmat) yoki uning tavsifini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Xarid hujjatiga takliflar berish muddati tugaydigan muddatda o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, eng yaxshi takliflarni tanlash xarid hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan sanadan boshlab kamida o'n kunga uzaytiriladi. Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, eng yaxshi takliflarni tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi.
9	Eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlarini baholash	9.1	Takliflarni baholash va g'olibni aniqlash xarid hujjatlarida belgilangan mezonlar asosida amalga oshiriladi (2-ilova).
		9.2	Xarid hujjatlari va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.
		9.3	Xorijiy va mahalliy ishtirokchilar narxlarini to'g'ri taqqoslash maqsadida, baholashda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda tegishli xarajatlar (soliqlar, bojxona to'lovlari va boshqa majburiy to'lovlar) hisobga olinadi.
		9.4	Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari, takliflarni ko'rib chiqish va baholash elektron bayonnomasida qayd etiladi.
		9.5	Takliflarni ko'rib chiqish va baholash elektron bayonnomasi xarid komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolandi.
		9.6	Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchisi takliflarni baholashdan so'ng buyurtmachiga eng yaxshi takliflarni tanlash natijalari bo'yicha tushuntirishlar berish to'g'risida so'rov yuborish huquqiga ega. Bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni mobaynida buyurtmachi amaldagi Qonunchilik doirasida tegishli tushuntirish ishlarini taqdim etishi shart.

10	Tomonlarning javobgarligi va maxfiylikka rioya qilish	10.1	O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikga, ishchi organga kiruvchi, eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini hisobga oladigan, ularning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlaydigan ishchi xodimlar ma'sul.
		10.2	Komissiya raisi va a'zolari, shuningdek takliflarni o'rganish uchun tashkil etilgan ishchi guruh a'zolari axborotni oshkor qilish, ishtirokchilar, komissiyaning boshqa a'zolari va jalb etilgan ekspertlar bilan til birlashtirish, shuningdek boshqa g'ayriqonuniy harakatlar uchun mas'uldirlar.
		10.3	Shartnoma bo'yicha (miqdoriy, sifat va texnik parametrlar bo'yicha) majburiyatlarni bajarmagan eng yaxshi takliflarni tanlash g'olibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va/yoki tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi.
11	Boshqa shartlar	11.1	Eng yaxshi takliflarni tanlashda ishtirok etish istagini bildirgan ishtirokchilar o'tkazilayotgan eng yaxshi takliflarni tanlash yuzasidan tushuntirish ishlarini olish uchun ishchi organga murojaat qilish huquqiga ega.
		11.2	Ishtirokchi xarid qilish hujjatlari qoidalarini eng yaxshi takliflarni tanlash o'tkazish uchun e'lon qilingan shaklda tushuntirish berish to'g'risida buyurtmachiga so'rov yuborish huquqiga ega. Ko'rsatilgan so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni mobaynida buyurtmachi xarid hujjatlari qoidalarini belgilangan shaklda tushuntirishi shart, agar ko'rsatilgan so'rov buyurtmachiga takliflar berish muddati tugaguniga qadar ikki kundan kechiktirmay kelib tushgan bo'lsa. Xarid hujjatlari qoidalarini tushuntirish uning mohiyatini o'zgartirish kerak
		11.3	Eng yaxshi takliflarni tanlash xarid komissiyasi tomonidan amalga oshirilmagan deb e'lon qilinishi mumkin: * agar eng yaxshi takliflarni tanlashda bitta ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa;
		11.4	Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklifni qabul qilib olganga qadar istalgan vaqtda eng yaxshi takliflarni tanlashni bekor qilish huquqiga ega. Buyurtmachi eng yaxshi takliflarni tanlash bekor qilingan taqdirda ushbu qarorning asosli sabablarini rasmiy veb-saytda e'lon qiladi.
12	Shartnoma tuzish	12.1	Xarid komissiyasi qarori bilan g'olib deb e'lon qilingan eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchisi buyurtmachidan tegishli xabarnoma oladi va buyurtmachining moliyaviy xizmati tomonidan taqdim etilgan shartnoma tuzadi.
		12.2	Eng yaxshi takliflarni tanlash g'olibi bilan yakuniy hisob-kitob O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan, tegishli ekspertiza xulosasi olinganidan so'ng amalga oshiriladi.
		12.3	Agar g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, shartnoma tuzish huquqizaxiradagi g'olibga o'tkaziladi. Bunda zaxira g'olibi eng yaxshi takliflarni tanlash g'olibi tomonidan taklif etilgan narxda shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

Xarid hujjatlari qoidalarini tushuntirish uchun so'rov shakli
Ishtirokchining firma blankasi (agar mavjud bo'lsa) yoki burchak shtampida

Eng yaxshi takliflarni tanlash
o'tkazish uchun xarid komissiyasiga

[rasmiy veb-saytga] joylashtirilgan sotib olish hujjatlarining quyidagi qoidalari borasida [davlat buyurtmachisining ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish] tushuncha berishingizni so'rayman:

№ п/н	Sotib olish hujjatlari bobi	Tushuntirish kerak bo'lgan xarid qilish hujjatlari bandi	Xarid hujjatlarini tushuntirish uchun so'rovning mohiyati
1	2	3	4

Ushbu so'rov bo'yicha tushuntirish ishlarini sizdan quyidagi manzilga [pochta manzili, elektron pochta manzili, faks raqamini] yuborishingizni so'raymiz.

[kun, oy, yil]

[so'rovni imzolagan shaxs lavozimining nomi] [imzo]
[F.I.Sh.]

M.O'.

II. MALAKA HUJJATLARI RO'YXATI

1-ilova

Malaka hujjatlari RO'YXATI

1. Ishtirokchi qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida, buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasi holatida, shuningdek ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha bajarilmagan majburiyatlarning yo'qligini tasdiqlovchi kafolat xati (1-shakl)*, ushbu shaklga byudjetdan va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi yo'qligi to'g'risidagi soliq idorasidan my.soliq.uz saytidan ma'lumot
2. Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot (2-shakl)*, ushbu shaklga ishtirokchining ishchi hodimlarning diplom va elektron mehnat daftarchasidan nusxa, bajarilgan ishlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.
3. Moliyaviy natijalar to'grisida ma'lumot (3-shakl)*, ushbu shaklga ohirgi 2 yillik balans hamda moliyaviy natijalar hisoboti ilova qilinishi shart:
4. Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza (4-shakl)

** 1, 2, 3, 4-shakllar ishtirokchi tomonidan to'ldirilmagan yoki noto'g'ri to'ldirilgan xolda, ishtirokchi eng yaxshi takliflarni tanlashdan chetlashtiriladi.*

(to'ldirilishi shart)

1-shakl

Ishtirokchining firma blankasi (agar mavjud bo'lsa) yoki burchak shtampida

№: _____

Sana: _____

Xarid komissiyasi

KAFOLAT XATI

Ushbu xat bilan _____:
(tashkilot nomi)

- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emas;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning yo'q;
- "Toshkentsuvqurilishinvest" DM bilan sud yoki hakamlilik muhokamasi holatida emas
- avvalgi tuzilgan shartnomalar bo'yicha to'la bajarilmagan majburiyatlar mavjud emas
- ishonchsiz ijrochilarning yagona reestrda biz haqimizda hech qanday ma'lumot yo'qligi to'g'risida kafolat beramiz.

Imzolar:

Rahbarning (F.I.Sh.) _____

Bosh buxgalter (moliya bo'limi boshlig'i) (F.I.Sh.) _____

Yurist (F.I.Sh.) _____

M.O'.

Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot

1	Yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq nomi	
2	Ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumot (ro'yxatga olish sanasi, ro'yxatga olish raqami, ro'yxatga olish organining nomi)	
3	Yuridik manzili	
4	Aloqa telefoni, faks, elektron pochta	
5	To'liq bank tafsilotlari	
6	Faoliyatning asosiy yo'nalishlari	
7	Benefitsiar/ta'asischi to'g'risida ma'lumot (shaxsiy STIR, F.I.Sh.)	

Shu kabi ishlarni bajarish tajribasi haqida ma'lumot

№	Bajarilgan ishlar nomi	Buyurtmachining nomi	Shartnoma summasi	Roli (Bosh loyihachi/yordamchi loyihachi)

Ishlarni bajarish uchun kerakli malakali xodimlarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot

№	F.I.SH	Ma'lumoti (o'quv dargoxi nomi, tugatgan sanasi, diplom №)	Mutaxassisligi	Umumiy ish tajribasi (yil)	Ushbu lavozimdagi ish tajribasi (yil)

Ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan uskunalar mavjudligi to'g'risida ma'lumot

№	Nomi	Turi	Ishlab chiqarish sanasi	Tegishliligi (balansda / ijara)

(vakolatli shaxsning imzosi)

(F. I. O. va vakolatli shaxs lavozimi)

M. O'.

Sana: " __ " _____ 202__yil.

ISHTIROKCHINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI (3-shakl)

(Shaklga keyingi 3 yildagi moliyaviy natijalar va buxgalteriya balanslari haqidagi hisobot ilova qilinadi)

(минг сўмда)

AKTIVLAR	2020 y	2021 y	PASSIVLAR	2020 y	2021 y
Uzoq muddatli aktivlar			O'z mablag'lari manbai		
Asosiy vositalar			Ustav fondi		
Shundan Ishlab chiqarish fondlari			Taqsimlanmagan foyda		
Qoldiq qiymat			Majburiyatlar		
Kapital quyilmalar			Zaymlar		
Tugallanmagan ishlab chiqarish			Kreditor qarzdorlik		
Joriy aktivlar			Shundan muddati o'tgan qarzdorlik		
Aylanma mablag'lar			Shundan muddati o'tgan qarzdorlik		
Ulardan ishlab chiqarish zaxiralari			Shundan ish haqidan qarzdorlik		
Debitor qarzdorlik					
Shundan muddati o'tgan qarzdorlik					
Jami balans aktivi bo'yicha			Jami balans passivi		

Moliyaviy natija

Nomi	2020 y	2021 y	Nomi	2020 y	2021 y
1. Realizatsiyadan olingan tushum			8. Sof foyda		
2. Realizatsiyadan olingan sof tushum			Shundan asosiy faoliyat bo'yicha		
3. Realizatsiya kilingan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi			Umumxo'jalik faoliyat bo'yicha		
4. Ma'muriy xarajatlar			9. Asosiy faoliyatdan olingan foyda		
5. Boshqa xarajatlar			10. Umumxo'jalik faoliyatdan olingan foyda		
6. Daromad solig'i to'lovigacha foyda			11. Zarar		
7. Daromad solig'i			shundan		
			asosiy faoliyatdan		
			umumxo'jalik faoliyatdan		

Rahbar _____

Bosh hisobchi _____

muhr

Sana: « ____ » _____ 20__ y.

Izoh: Tanlov ishtirokchisining keyingi 3 yildagi moliyaviy ahvoli haqidagi hujjatlari tarkibida auditor kompaniyasining ijobiy xulosasini taqdim etishi mumkin. Balans hisobotlarining nusxalari taqdim etilishi shart.

(to'ldirilishi shart)

4-shakl

Ishtirokchining firma blankasi (agar mavjud bo'lsa) yoki burchak shtampida

№: _____ Sana : ____

Xarid komissiyasi

Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ARIZA

_____ kompaniyasi rahbariyati davlat buyurtmachisidan yoki xarid qilish tartib-taomilining boshqa ishtirokchilaridan korrupsion huquqbuzarlik sodir etilish maqsadida murojaat qilish holatlari aniqlanganda, ushbu faktlar to'g'risida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chora ko'rish uchun darhol xabar berilishini kafolatlaydi.

Biz, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga ularning o'z vazifalarini ijro etilishi munosabati bilan korrupsion huquqbuzarlikga yo'l qo'yib, moddiy va boshqa rag'batlantirish takliflarini berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirildik.

Imzolar:

Rahbarning (F.I.Sh.) _____

M.O'.

ISHTIROKCHILAR ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH TAKLIFLARINI DASTLABKI MALAKAVIY BAHOLASH TARTIBI VA MEZONLARI

2-ilova

Ishtirokchilar va eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini malakaviybaholash tartibi va mezonlari.

Eng yaxshi takliflarni tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchilarni saralash tartibi va mezonlari.

Malakaviy va texnik baholash mezonlari

№	Mezon	Baho	Eslatma
1	Ishtirokchining qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emasligi, buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasining bosqichida emasligi to'g'risidagi kafolat xati (soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi yo'qligi to'grisida ma'lumot my.soliq.uz saytidan olinadi)	Mavjud bo'lsa – 20 ball Mavjud bo'lmasa – 0 ball	1-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi (taqdim etilmasa yoki o'rnatilgan tartibda taqdim etilmasa talabgor chetlashtiriladi)
3	Ishtirokchi to'g'risida umumiy ma'lumot (malakali texnik-muhandis xodimlarning mavjudligi, elektron mehnat daftachasidan nusxa va diplom nusxalari, oxirgi 2 yilda bajarilgan ishlarni tasdiqlochi hujjatlar taqdim etiladi)	Mavjud bo'lsa – 20 ball Mavjud bo'lmasa – 0 ball	2-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi (taqdim etilmasa yoki o'rnatilgan tartibda taqdim etilmasa talabgor chetlashtiriladi)
4	Moliyaviy natijalar to'g'risida ma'lumot (ohirgi 2 yillik balans hamda moliyaviy natijalar hisoboti ilova qilinadi)	Mavjud bo'lsa – 20 ball Mavjud bo'lmasa – 0 ball	3-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi (taqdim etilmasa yoki o'rnatilgan tartibda taqdim etilmasa talabgor chetlashtiriladi)
5	Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza	Mavjud bo'lsa – 20 ball Mavjud bo'lmasa – 0 ball	4-shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi (taqdim etilmasa yoki o'rnatilgan tartibda taqdim etilmasa ushbu shaklga beriladigan ball Oga tenglashtiriladi)

Izox: O'tish bali 60 ball

ENG YAXSHI TAKLIFLARNI MOLIVAVIY QISMINI BAHOLASH MEZONLARI

№	Mezon	Baho	Eslatma
1	Taklif narx	Eng past narx – 20 ball Yuqori narx – eng kam ball	Moliyaviy qismini baholash, komissiya tomonidan texnik mezonlarni baholangandan so'ng, maxsus axborot portali tomonidan avtomatik tarzda amalga oshiriladi

№	Mezon	Baho
1	Texnik qismning miqdoriy ko'rsatkichi	80%
2	Narx usulining miqdoriy ko'rsatkichi	20%